

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30. 12. 2019. Fil/PED 83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SAYDULLAYEVA SURAYYO SERAJIDDINOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NUTQIY ETIKETLARNING  
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological sciences**

**Saydullaeva Surayyo Serajiddinovna**

Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari ..... 3

**Сайдуллаева Сурайё Серажиддиновна**

Лингвокультурологические особенности речевого этикета в английском и  
узбекском языках..... 21

**Saydullaeva Surayyo Serajiddinovna**

Linguocultural peculiarities of speech etiquette in English and Uzbek languages. 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30. 12. 2019. Fil/PED 83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SAYDULLAYEVA SURAYYO SERAJIDDINOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NUTQIY ETIKETLARNING  
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.1.PhD/Fil1161 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchi.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Murodova Nigora Qulliyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xayrullayev Xurshid Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rustamov Ilhom Tursunovich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi №\_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**G‘.Q.Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Sh.S.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida nutqiy etiketni lingvomadaniy, pragmalingvistik, sotsiolingvistik, badiiy, ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish qadimgi tarixning ilk bosqichlarini bosib o'tdi. So'nggi yillarga kelib dunyo tilshunosligida shaxslararo muloqotning shakllanishi, turli millatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro nutqiy muloqotning o'xshash, farqli tomonlari, shu bilan bir qatorda nutqiy etiketlarning milliy-madaniy va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida ushbu sohani o'rganish bilan bog'liq amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari hozirgi kunda tilshunoslikning pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi yangi sohalarini yaratilishida muhim tayanch vazifasini o'tamoqda. Chunki muloqotga kirishilayotganda, albatta, so'zlovchi va tinglovchi bir biriga bo'lgan munosabatini nutqiy etiketlarga asoslanadi, shu bilan bir qatorda bu ularning milliy madaniyatlariga bo'lgan hurmatini oshirishga ko'maklashadigan vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalarini tadqiq etish va ularning tillararo o'xshashlik va farqli tomonlari: tipologiyasi va etimologiyasini o'zaro qiyoslash, hamda fanga yangiliklar qo'shish kabi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va keng soha sifatida ishlatilishi hamda xalqaro tillar singari chet davlatlarda o'rgatila boshlanishi buning dalilidir, shu bilan bir qatorda mamlakatimizda qabul qilinayotgan bir qator farmon va hujjatlarida "...o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va istiqboldagi vazifalar belgilab berildi".<sup>1</sup> O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda til va madaniyat munosabati til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish yuzaga kelmoqda, ammo mavjud tadqiqotlarda o'zbek va ingliz tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy o'rganilmagan. Bu o'zbek va ingliz tillarida nutqiy etiketlarni o'rganish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu dissertatsiya nutqiy etiketning o'zbek va ingliz tilidagi qiyosiy hamda chog'ishtirma talqiniga bag'ishlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha oliy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni. Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 21 oktabr, №221-222 (7723-7724)

ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084 son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligidagi bir qator olimlardan R. O. Yakobson, R. Jon, Ye. Melibruda, D. Efron, P. Braun va S. Levinson, S. Mills, L. Mullani, G. Kasper, R. Lakofflarning<sup>2</sup> ilmiy tadqiqotlari ingliz tilida nutqiy etiketlar, nutq aktlari hamda xushmuomalalikning lingvistik jihatlarini, shuningdek, rus tilshunosligida Ye. A. Zasepina, T. V. Larina, N. I. Formanovskaya, B. X. Raxmatillaeva, L. V. Xoxlovalarning<sup>3</sup> tadqiqotlari "xushmuomalalik" tushunchasining leksik va frazeologik obyektini, xushmuomalalik va muloqot uslubi toifasi: ingliz va rus tillari madaniy an'analarini taqqoslab o'rganishga bag'ishlangan.

Bu sohada turkiy tillarda A. K. Naurizovning Qoraqalpoq tilidagi etiket so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari, eksplitsit va implitsit ma'nolarda qo'llanilishi mavzusida tadqiqot ishini olib borgan. O'zbek tilshunosligida Sh. Safarov "Pragmalingvistika" va "Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari" qo'llanmalarida muloqot tizimini sistema sifatida tahlil etishning ba'zi tamoyil va usullarini, Sh. Rahmatullaev, X. Hojievalar o'zbek tilida hurmat formasi va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlarini, S. Mo'minov O'zbek tilida muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini, N. Mahmudov leksik birliklar va so'z kesimida ish olib borgan bo'lsa, R. Qo'ng'urov O'zbek tilida nutq madaniyati, nutqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishi hamda tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida

---

<sup>2</sup>Якобсон Р. О. Лингвистика и поэтика Структурализм: "за" и "против". М., 1975, С. 193–230; John R Searle, Speech Acts. Cambridge University Press. 1969, p-203; Мелибруда, Е. Я-ты-мы: Психологические возможности улучшения общения– М.: Прогресс, 1986. – 256 с.; Efron D. Gesture, Race and Culture. Haag, 1972. p - 321.; Brown P and Stephen C.L Politeness: Some universals in language usage. Cambridge:1987, p-358.; Mills S, Beeching K. Politeness at Work Journal of Politeness Research. Language, Behaviour, Culture, 2006. 1.-P.; Mullany B. "Girls vom tour": Politeness. Smalltalk and gender in managerial business meetings -Journal» of Politeness Research, Language, Behaviour, Culture. 2006, P- 55-77; Kasper G. Linguistic Politeness: Current Research Issues Journal of Pragmatics, 1990. P 193-218; Лакофф Р. Прагматика публичного извинения, Жанры речи.— Саратов: Издательский центр «Наука», 2007, 440 с

<sup>3</sup>Зацепина Е.А «Лексико-фразеологическая объективация концепта "вежливость" в русском языке» дисс. кан. фил. наук:- Воронеж, 2007-189 с; Т.В. Ларина «Категория вежливости и стил коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций М.,: 2009-315 с; Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения — М.: Высшая школа, 1989- 156 с; Хохлова Л.В Социолингвистический анализ форм вежливости в языке раджастан в журнале Восток (Oriens), -М.: Российская академия наук -1973, с-96-108; Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским). Автореферат. - Ташкент, 1992.-18 с

shakllanishida o'z hissasini qo'shgan, M. M. Saidxonov muloqotning noverbal vositalar orqali ifodalanishi va uning qo'llanilishi, H. K. Turdievaning Fors va o'zbek tillarida nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi, Q.Sh.Kaxarov<sup>4</sup> esa o'zbek va nemis tillarida nutqiy etiketlarning qiyosiy hamda uning ifoda shakllari va ijtimoiy mohiyatini tadqiq etgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijasiga ko'ra jahon tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida nutqiy etiketning lingvomadaniy xususiyatlari o'zbek va ingliz tilida chog'ishtirma aspektda o'rganilmaganligi aniqlandi. Nutqiy etiket birliklarini jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligi yutuqlariga suyangan holda lingvomadaniy tadqiq qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlarining «Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari» mavzusi rejaları doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek va ingliz xalqlari nutqiy etiketlarining lingvomadaniy xususiyatlari va uning ifoda shakllari shu bilan bir qatorda, ijtimoiy mohiyatini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nutqiy etiketlarning milliy madaniy xususiyatlarini qiyoslanayotgan tillar kesimida ilmiy asoslab berish;

qiyoslanayotgan tillardagi xushmuomalalik va nutq odob-axloqi shaxslararo muloqotning xarakterli dominantalarini o'rganish va ilmiy tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillaridagi muloqot jarayonida etiketning lingvomadaniy xususiyatlarini ko'rsatib berish;

turli lingvistik madaniyatlarda etiket-kommunikativ jarayon modelining amaliyotga tadbiiq etish yo'llarini qiyosiy tahlillar asosida o'rganish;

ingliz va o'zbek tillaridagi murojaat shakllari, sen/siz munosabati, gender munosabatlari, muloqot jarayonida tabu va evfizmlarning ishlatilishi asosida sotsiologik xususiyatlarini asoslab berish;

**Tadqiqotning obykti** sifatida ingliz va o'zbek tillarida muloqot jarayonidagi shu bilan bir qatorda urf-odat, madaniyat, milliy-me'yoriy mezonlarga asoslangan nutqiy etiketlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o'zbek tillarida shakllangan nutqiy etiketlardagi o'xshash jihatlari va farqli tomonlari, madaniy va nutqiy

---

<sup>4</sup> Safarov Sh. Pragmalingsvistika – T., 2008. – 320 b.G/Safarov Sh. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari o'quv qo'llanma. Samarqand. – 2007 – 40 b; Rahmatullaev Sh. Hurmat formasi – T., 1973.– B.28–30.; Mo'minov S. M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Dissertatsiya. –Toshkent, 2000.– 235 b.; Qo'ng'urov R., Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari dissertatsiya Samarqand. 1993.-B 140; Hojjeva H. O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. – Samarqand, 2001. – 130 b; Saidxonov M.M Noverbal masalalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi. Avtoreferat. – Toshkent, 1993. – 26 b; Turdiyeva H.K Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (Fors Va O'zbek Tillaridagi Materiallar Asosida) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) Dissertatsiyasi Toshkent 2020, b-167; A.K.Naurizova, Qoraqalpoq tilidagi etiket so'zlar, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) Dissertatsiyasi Avtoreferati Nukus – 2020, b-44; Kaxarov Q.Sh O'zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) Dissertatsiyasi Avtoreferati Andijon-2020, 6-52

jarayonlardagi o'ziga xosliklar asosida ikki tilda so'zlashuvchi xalqlarning nutqiy faoliyatidagi asosiy jihatlarining qiyosiy tahlillari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini yoritishda tasniflash, tavsiflash, zidlash, qiyoslash va turli xil usullaridan foydalanib, ulardan tahlil usullari sifatida foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ingliz va o'zbek tillaridagi nutqiy etiketlarning lisoniy, lingvomadaniy jihatlari ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tilida muloqot jarayonidagi murojaat shakllarining qo'llanish darajasi urf-odat, madaniyat, milliy-me'yoriy mezonlar asosida isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan xushmuomalalikning (uzr- sorry kabi) turli xil formalari, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ strategik xususiyatlari aniqlangan;

nutqiy etiketning normativ xatti-harakatlarda verbal va noverbal holati nomoyon bo'lishi qiyosiy tahlillar asosida izohlangan;

ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchi xalqlarning muloqot jarayonidagi nutqiy etiketdan foydalanishi verbal va noverbal vositalar lingvomadaniy xususiyatlarga egaligi dalillangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Nutqiy etiket birliklarining ilmiy-nazariy aspektlari jahon hamda o'zbek tilshunosligida mavjud g'oyalar asosida o'zbek va ingliz nutq aktlari hamda verbal va noverbal muloqotda nutqiy etiket birliklarining o'ziga xos sotsiolingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari dalillangan.

Ingliz va o'zbek nutqiy etiketlarining o'ziga xos jihatlarini yoritishga oid natijalar "Qiyosiy tilshunoslik", "Nutq madaniyati", "Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish", "Tilshunoslik", "O'qituvchi nutqi madaniyati", "Ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasi" sohalari uchun muhim nazariy qarashlarning shakllanishiga asos bo'lishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'yilgan muammoning aniqliligi va unda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchli manbalar asosida yoritilganligi, o'zbek va ingliz tillarida qo'llaniladigan nutqiy etiketning tavsifiy, komponent, qiyosiy-tipologik tahlil metodlari asosida va shu bilan bir qatorda etiket birliklarining tavsifini berishda o'zbek va ingliz muloqot jarayonidagi materiallar va misollarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalari "Ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasi", "Tarjimashunoslik", "Nutq madaniyati", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish", "O'qituvchi nutqi madaniyati" kabi fanlarni nazariy ma'lumotlar bilan boyitishda muhim manba vazifasini o'taydi. Shuningdek, tadqiqotning amaliy ahamiyati tarjimashunoslik, nutq madaniyati, madaniyatlararo muloqotni shakllantirish va qiyosiy tipologiyaga doir muammolarni hal etishda, izohli lug'atlari, shu bilan bir qatorda lingvistik so'zlashgichlar yaratishda, muloqot jarayoniga oid tushunchalarni takomillashtirishda katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari dissertatsiyasi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek va ingliz tillarida muloqot jarayonidagi murojaat shakllarining qo‘llanish darajasi, urf-odat, madaniyat, milliy-me‘yoriy mezonlar asosida isbotlanganligi xalq og‘zaki ijodi namunalari tadqiq etishda, badiiy asarlar asosida o‘zbek va ingliz tillarida qo‘llaniladigan xushmuomalalikning turli xil formalari, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ strategik xususiyatlari va ularning sotsiologik jihatdan qo‘llanilishi, nutqiy etiketning normativ hatti-harakatlarda verbal va noverbal holati namoyon bo‘lishi qiyosiy tahlillar asosida izohlanganligi xalq og‘zaki janrlaridan doston, matal, maqol, ertak, qo‘shiq kabilarda ishlatiladigan frazeologik birliklarning ma‘nosini izohlashda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F-1-005 “Qoraqalpoq fol’klorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihalarda foydalanildi (O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti №17.01.282/15.10.2021 y ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, monografiyalarning hamda folklor asarlarning til xususiyatlarini o‘rganishga oid olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

nutqiy etiketning normativ xatti-harakatlarda verbal va noverbal holati namoyon bo‘lishi qiyoslash asosida dalillanganligi yuzasidan takliflardan Yevropa ittifoqi tomonidan Erasmus+ dasturining 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UKERRKA2-SVNE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida o‘zbek va ingliz tillaridagi nutqiy etiketlar qo‘llanilishi bo‘yicha lingvistik so‘zlashgich yaratishda, o‘zbek va ingliz tillarida qo‘llaniladigan xushmuomalalikning turli xil formalari, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ strategik xususiyatlari va ularning sotsiologik jihatdan qo‘llanilishi, o‘zbek va ingliz tilida madaniyat, milliy-me‘yoriy mezonlar asosida ta‘lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida mazkur tadqiqot ishidagi tahlil natijalaridan foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Samarqand davlat chet tillar instituti 12.11.2021y №2878/30.02.01. ma‘lumotnomasi). Natijada chog‘ishtirilayotgan tillar kesimida nutqiy etiketlarning muloqotda qo‘llanilishi, kommunikativ strategik xususiyatlari, milliy-me‘yoriy mezonlar asosida ta‘lim tizimi jarayonini mustahkamlashda, loyiha treninglari uchun mo‘ljallangan maqsadli uslubiy qo‘llanmalar va dars ishlanmalarini shakllantirishda nazariy asos bo‘lgan;

Dissertatsiya ishi natijalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Adabiy jarayon” nomli dasturlari ssenariysida (2021 yil avgust-oktabr oylari) foydalanilgan. (O‘zMTRK 04-25-1690- son, 29-oktabr 2021 yil ma‘lumotnomasi).

Natijada OAV tizimida dissertatsiya ishida aniqlab berilgan nutqiy etiket birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari, o'zbek milliy madaniyatida etiket birliklarining yuzaga kelishi, o'zbek va ingliz tillarida so'zlashuvchi xalqlarning muloqot jarayonidagi yosh hamda gender bilan aloqador vaziyatlar shu bilan bir qatorda muloqotda xushmuomalalikdan maqsadli foydalanish, madaniyatlararo muloqotda ularning lingvomadaniy tamoyillarining ahamiyatidan foydalangan holda eshittirishlar tayyorlash va efirga uzatish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga amal qilish eshittirishlarning sifati, mazmuni va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar ko'rinishida muhokama kilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 19 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 120 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarga asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

«**Nutqiy etiket va milliy madaniyat**» deb nomlangan birinchi bobda nutqiy etiketlarning shakllanishi, madaniyat munosabatlari masalasi, nazariy asoslari lingvomadaniyatshunoslik fanining mazmun-mohiyati, unda qo'llanilayotgan ilmiy atamalar mazmuni hamda uning lingvomadaniy xususiyatlari tavsiflanadi. Ushbu bobning «**O'zbek va ingliz tillarida nutqiy etiketlar tadqiqi**» deb nomlangan birinchi bo'limida «Etiket» tushunchasi oltmishinchi yillarning oxirida rivojlanishi, bunda nutqiy xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, taktikalari, dialogli nutqlar va matnlar, shaxslararo ijtimoiy munosabatlar, maxsus funksiyalar va ma'nolarga ega bo'lgan kommunikativ birliklarning keng doirasini qamrab olgan nutq odob-axloqi tushunchasi tilshunoslikka kirib kelishi va bir nechta tilshunos olimlar tomonidan o'rganilishi keng yoritib berildi. Taniqli tilshunos olim, nutqiy etiketlarni o'rganish sohasidagi buyuk tadqiqotchi N. I. Farmanovskaya ta'kidlaganidek: «*Nutqiy etiket bu-ijtimoiy va milliy nutqiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi, rasmiy va norasmiy muloqot jarayonida*

*shaxslarning mavqeyi va shaxsiy munosabatlariga muvofiq aloqalar o'rnatish va saqlab qolishdir*<sup>5</sup>". O'zbek tilshunosligida ko'plab olimlar, jumladan Sh. Safarov<sup>6</sup>, N. Mahmudov<sup>7</sup>, S. Mo'minov<sup>8</sup>, Q. Sh. Kaxarov<sup>9</sup>, A. K. Naurizova<sup>10</sup>, H.K.Turdiyeva<sup>11</sup> o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borgan. Ushbu olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbek va ingliz milliy madaniyatida bir qancha o'xshash va farqli jihatlari o'rganildi. O'zbek nutqiy etiketida mehmondorchilikda tanovul vaqtida mezbon tomonidan qo'llanadigan mulozamat birliklari «Oling, oling», «Dasturxonga qarang», «O'z uyingizdagidek his qiling», «Uyalmang»/«Tortinmang», «Yoqmadimi?» kabilardan iborat bo'lsa, ingliz madaniyatida bunday nutqiy birliklar mavjud emas.

**“Shaxslararo muloqotning kommunikativ milliy madaniy xususiyatlari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bo'limida muloqotning kommunikativ xususiyatlari tilshunos olimlar nazariyalari asosida yoritib berilgan. Shaxslararo kommunikativ muloqotni o'rganishda A. A. Chivilev, I. V. Serafimovich, G. Yu. Bazanova, O. A. Leontovich, O. F. Korol, L. R. Komalova, E. B. Yakovleva<sup>12</sup> singari bir qator tilshunos olimlarning o'rni juda katta, shu bilan bir qatorda avval ishlangan va erishilgan natijalar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. O. A. Leontovich<sup>13</sup> muloqotning pozitiv ya'ni ijobiy his-tuyg'ularga asoslanganligini, o'zaro tushunishga va barcha ishtirokchilarni mamnun qilishga qaratilgan o'zaro ta'sir sifatida talqin qiladi. Biz ham ingliz tilida ishlatiladigan **“positive”** ya'ni ijobiy emotsional so'zini o'zaro ta'sir etish doirasiga ko'ra guruxlarga bo'ldik: 1. Expressing or implying certainty, acceptance, affirmation, agreement, or permission, decisive, convinced, confident, sure, certain, satisfied, assured, definite, approving (Бирон бир шахсга ишончини билдириш); 2. Having a good effect, laudable, favourable, advantageous, beneficial, worth-while, pleasing, heartening; supportive, encouraging, enthusiastic, reassuring, up-beat, sanguine, helpful, corroborative (Muloqotda ta'sir o'tkazish); 3. Effective, useful, practical, productive, pragmatic, efficacious, constructive, concerned with practical rather than theoretical matters, forward-looking, promising, hopeful, optimistic (Foydali

<sup>5</sup> Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения - М. : Высш. шк., 1989. – 156 с.

<sup>6</sup> Safarov Sh., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari o'quv qo'llanma. Samarqand – 2007.-40 b

<sup>7</sup> Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy nigoh // Til tilsimi tadqiqi – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B.168

<sup>8</sup> Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – B.47.

<sup>9</sup> Kaxarov Q.Sh. O'zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) Dissertasiya, Andijon – 2020, 16-b

<sup>10</sup> Naurizova A.K., Qoraqalpoq tilidagi etiket so'zlar, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati, Nukus – 2020, b-44

<sup>11</sup> Turdiyeva H.K. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragsmatik tadqiqi (fors va o'zbek tillaridagi materiallar asosida) Toshkent 2020, b-167

<sup>12</sup> Чивилев А.А. Межличностная коммуникация как объект исследования культурологии, Вестник культуры и искусств. — 2015.— С. 38–42; Серафимович И.В., Базанова Г.Ю. Роль интеллектуальных и метакогнитивных особенностей для эффективной коммуникации студентов в процессе профессионализации, European Social Science Journal. — 2016.— С. 510–522; Леонтович О.А. Позитивная коммуникация: постановка проблемы, Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. — 2015.— С. 17–22.; Корол О.Ф. К вопросу о социальной компетентности личности: межкультурные коммуникации в управленческом взаимодействии, Проблемы современного педагогического образования. — 2016. — С. 445–460; Комалова Л.Р., Яковлева Э.Б. Межличностная коммуникация: от конфликта к консенсусу. — 2016. 142 с.

<sup>13</sup> О.А. Леонтович Позитивная коммуникация: постановка проблемы\ Russian journal of linguistics – 2015.- С 164-165

terminlardan foydalanish). O‘zbek tilida ham **ijobiy** emotsionallikni anglatuvchi so‘zlarni quyidagidagicha talqin qildik: 1.**Emotsional ekspressiv bo‘yoqdor leksika:** *muhabbat, yaxshilik, sevmiq, suluvi*; 2.**Stilistik bo‘yoqdor leksika:** *sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar*; 3.**Ekspressiv-stilistik leksika:** *yaxshi, go‘zal, xursand, sahiy, odil, kamtar (kamtarona)*. Demak, o‘zbek adabiy tilidagi barcha so‘zlar til birligi sifatida «ijobiy»dir, chunki ular ma‘lum tushunchalar anglatishga xizmat qiladi.

“**Nutqiy etiketlarda lingvistik vositalar**” deb nomlangan uchinchi bo‘limda nutqiy etiketning muloqotda shakllanishi va uning ishlatilishi, golofrastik tizimi va uning shakllari so‘zlashuv jarayonida har qanday vaziyatda ifoda etiladigan buyruqlari, belgilari hamda mazmunlari tahlillar asosida talqin qilindi. Jahon tilshunos olimlaridan biri Ildiko Sajbok o‘zining “Language Etiquette And Culture In Teaching Of Foreign Languages”<sup>14</sup> nomli ilmiy maqolasida etiket va nutqiy etiket madaniyat bilan bog‘liqligini ammo uning o‘zgaruvchanligini misollar orqali tahlil qilgan va u nutqiy etiketni golofrastik tizim ekanligini ta‘kidlab, bir nechta darajalarga bo‘lib o‘rgangan. Nutqiy etiketlarning muloqotda shakllanishi va ishlatilishi turli xil lingvistik vositalar orqali namoyon bo‘ladi. **Fonetik vositalar:** nutq tovushlari, urg‘u, ohang, ton, tovush tembri orqali amalga oshiriladi. Har qanday asar tilining hamda muloqotning eng muhim belgilari obrazlilik va emotsionallik hisoblanar ekan, ushbu xususiyatlarni nutqiy vositalar yuzaga chiqaradi. Shu bilan bir qatorda chiroyli intonatsiyalardan foydalanishni ko‘rish mumkin. Masalan, ba‘zi bir iboralar intonatsiyaga qarab har xil ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Xuddi shu aytilayotgan jumla buyruq yoki xushmuomalali iltimos bo‘lishi mumkin; *Pass me the salt, please* yoki *Can you pass me the salt?*; o‘zbek tilida: *Tuzni uzatib yuboring, iltimos* yoki *Tuzni uzatib yuborolmaysizmi?* **Morfologik vositalar:** so‘roq yuklamasi va buyruq mayli shakllari orqali xushmuomalalikni ifodalanishi har ikkala tilda quyidagicha, masalan, ingliz tilida: - *Could you tell me the reason of your sadness, please*; o‘zbek tilida: *Xafaligingiz sababini ayta olasizmi, iltimos*. – *Xafaligingiz sababini ayting, iltimos*; Ingliz tilida “*Could you*” iborasi tom ma‘noda bajarilishi mumkin bo‘lgan narsani ifodalash uchun ishlatiladi. Misolda esa xushmuomalalik bilan murojaat qilish, ya‘ni biror bir narsani so‘rash shaklining morfologik darajalarda qo‘llanilishi nazarda tutilgan. **Leksik vositalar:** o‘zbek va ingliz tillarida nutqiy etiketlar frazeologizmlar, maxsus so‘zlar va iboralar, murojaat qilish vositalari orqali yuzaga chiqadi, masalan, ingliz tilida: *Thank you, excuse me, See you, Mr*; o‘zbek tilida: *Rahmat, kechirasiz, ko‘rishguncha, janob - Excuse me, can you tell me the name of this movie, please?! Yoki:- Kechirasiz, bu filmning nomini aytib yuborolmaysizmi, iltimos?* Yuqorida keltirilgan misollarning har ikkalasida nutqiy etiketning ifodalanishini leksik vositalar ya‘ni maxsus so‘zlarni qo‘llanilishida ko‘rishimiz mumkin va ushbu so‘zlar murojaat qilish shakli hisoblanadi, ingliz tilida *Excuse me, please*, o‘zbek tilida esa *Kechirasiz, iltimos*. Demak, ko‘rinadiki har ikkala tilda so‘zlashuvchi madaniyatlarda ham bir ma‘noni anglatuvchi bir xil

---

<sup>14</sup> Ildiko Csajbok-Twerefou Language Etiquette And Culture In Teaching Of Foreign Languages, Practice and Theory in Systems of Education, 2010, <https://www.researchgate.net/publication/314187034>

maxsus soʻzlar mavjud. **Uslubiy vositalar:** rasmiy va norasmiy muloqotda nutqiy etiket qoidalari har bir madaniyat va tilga asoslanadi, shuning uchun u har xil boʻlishi mumkin. Ingliz tilida, masalan, rasmiy xatlarda murojaat qilishda *Dear* (Qadrli) soʻzidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hon. Joseph R. Biden,  
President-Elect

Самарканд давлат чет  
тиллар институти ректори  
И.Тухташновга

November 8, 2020

Хурматли Илхомжон Мадаминович!

Dear Mr President-Elect,

I would like to congratulate you on your election as the 46th President of the United States of America.

I am confident that the 20th of January will mark a new day, not only for the United States but for the world and the international community as a whole.

Навоий давлат педагогика институти маъмурияти "10.00.06-Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик" ихтисослиги мустақил тадқиқотчиси Сайдуллаева Сурайё Сераждиновнага филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун, Сиз раҳбарлик қилаётган институтда мутахассислик ва чет тили (француз тили) фанидан малакавий имтиҳон топширишга руҳсат беришингизни сўрайди.

Талаб этиладиган ҳужжатлар илова қилинмоқда.

Хурмат билан,

Bu esa oʻzbek tilida koʻproq *Hurmatli* (Respectable) soʻzi orqali ekvivalent sifatida qoʻllaniladi. Chunki, ingliz tilidagi *Dear* soʻzi tarjima qilinganda *Qadrli* maʼnosini anglatadi va bu oʻzbek tilida rasmiy xat yozishda foydalanilmaydi. *Qadrli* soʻzi asosan yaqin doʻstlar yoki qarindoshlar oʻrtasidagi shaxsiy xatlar yozishda qoʻllanilishi maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan oʻzbek tilidagi rasmiy xatlarda asosan *Hurmatli* soʻzi ishlatiladi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va oʻzbek tillarida nutq odob-axloqi va xushmuomalalik shaxslararo muloqotning xarakterli dominant sifatida”** nomli ikkinchi bobi har ikkala tilda muloqot jarayonidagi nutq odobi hamda xushmuomalalikning dominantalarini yoritib berilgan.

**“Ingliz va oʻzbek tillarida nutq odob-axloq qoidalarining qoʻllanilishi va lingvomadaniy xususiyatlari”** deb nomlanuvchi birinchi boʻlimda oʻzbek va ingliz tillaridagi nutq odob-axloq qoidalari va ularning qoʻllanilishi tahlillar asosida yoritib berildi. Rus tilshunosligida G. V. Kolshanskiy<sup>15</sup> nutq odob-axloqni shaxslarning kommunikativ oʻzaro taʼsirini hisobga olmaganida tushunib boʻlmasligini, oʻz navbatida, muloqot subʼektlarining kommunikativ xatti-harakatlarini tahlil qilish muammosi katta ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi. Oʻzbek tilida, — *Zaynab opaning uylari shumi? — deb soʻradi Tolibjon.* — *Ha, shu. Keling, togʻa.* (S. Ahmad “Jimjitlik” asari 4-b), ingliz tilida: - *Welcome, Anna, to our virtual life. - Thank you, brother, for inviting me to your world.* Oʻzbek tilida keltirilgan misolda **“Keling, togʻa”** bir notanish inson ikkinchi bir insonga *togʻa* soʻzi orqali murojaat qilinsa, ingliz tilida *sister* (opa), *brother* (aka), *mother* (ona), *father* (ota) kabi otlar muloqot jarayonida hurmat maʼnosini anglatish maqsadida va nutqiy etiketning xushmuomalalik yuzasidan murojaat qilish shakli sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, har ikkala tilning oʻxshash tomonlari mavjud ekanligidan dalolatdir.

Nutq odob axloq qoidalaridan biri bu—salomlashishdir. Tadqiqotchi N. P. Savoyskaya<sup>16</sup> ilmiy izlanishlarida odob-axloq materiallarini tahlil qilish natijasida qozoq, rus va ingliz tillarida salomlashish formulalarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqladi yaʼni qozoq tilida xushmuomala bilan salomlashishning

<sup>15</sup> Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. -М.: Наука, 1990. - 103 с.

<sup>16</sup> Савойская Н.П., Лингвокультурологические особенности концепта "вежливость" (на материале казахского, русского и английского языков) Автореферат дисс.канд.фил.наук, Тюмен – 2005, 24 с

ko'rsatkichi bo'lgan maxsus **-сыз /-сіз** (*Сәлеметсіз бе, қалайсыз*) qo'shimchasi mavjudligi; rus tilida ham shunga o'xshash - **те** (*Здравствуйте, как пожеваеме*) affiksal komponenti mavjudligi, zamonaviy ingliz tilida bunday rasmiy ko'rsatkich yo'q (*Hello□, how are you□*) ekanligini aniqlagan. Biz o'zbek tilida ham salomlashishga **-siz/-ing** (*Assalom-u alaykum, salomatmisiz, salomat bo'ling*) affikslarini qo'shish orqali yasalishini izohladik va o'zbek tilida salomlashishlarda mavjud affikslar ingliz tilida mavjud emasligini tahlillar asosida aniqladik.

Bobning **“Muloqotning tarkibiy xususiyatlari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bo'limida ushbu yondashuvlarning shakllari va ishlatilishi tahlillar asosida dalillandi. Shuningdek, ushbu sohaga tilshunos olimlardan G. M. Andreeva<sup>17</sup>, M. I. Yenikeev<sup>18</sup>, A. A. Brudnyy<sup>19</sup>, L. A. Karpenko<sup>20</sup>, N. Viner, M. Maklyuen, Yu. D. Prilyuk, T. Parsons, K. Cherri, L. C. Vigoskiy, V. N. Kurbatov, A. A. Leontevlar<sup>21</sup> katta hissa ko'shgan. O'zbek va ingliz tillarida shaxs muloqotini shakllantirishda **interaktiv, kommunikativ** va **perseptiv** tarkiblar muhim ahamiyatga egadir. **Interaktiv muloqot**da interfaol tomon harakatlarni almashish, ya'ni muloqot qiluvchi odamlarning o'zaro aloqasini tashkil qilish bilan tavsiflanadi. O'zbek tilida: *-Tuzukmisiz, ota?-Xudoga shukur, - dedi Hasanali,- boyag'idan biroz yengilladim. - Ba'zi yumushlar buyursam..., - Buyuringiz, o'g'lim.-Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangizchi.* (A. Qodiriy “O'tkan kunlar” romani, 8-bet) Demak, asardagi *Ba'zi yumushlar buyursam..., Buyuringiz, o'g'lim. Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangizchi* kabi xushmuomalalikning iltimos qilish shaklidan foydalanilgan bo'lib, ushbu usul interaktiv muloqot turi ya'ni individlar o'rtasidagi harakatlar orqali ta'sir o'tkazishini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida: *- Could you read the notice which written in the door, please?(Eshikda yozilgan e'lonni o'qib yuborolmaysizmi, iltimos), - Yes, sure. Due to some reasons you can't participate to this exam, here are names of failed students.* (Ha, albatta. Ba'zi bir sabablarga ko'ra siz ushbu imtixonda qatnasha olmaysiz, bu yerda o'ta olmaganlar ro'yxati keltirilgan). Matndagi *Yes, sure* birikmasi ingliz tilida iltimos shakliga nisbatan *ha, albatta* tarzida munosabat bildirish nutqiy etiketning shaxslararo interaktiv muloqotning boshlanishi va davomiyligini ta'minlovchi omil ekanligini ko'rsatadi. Demak, har ikkala tilda interaktiv muloqotda insonlar o'rtasidagi harakatlar va nutqiy etiketlar orqali ta'sir o'tkazishda farqli tomonlari mavjud emasligi aniqlandi. **Muloqotning kommunikativ** tomoni - bir nechta shaxslar o'rtasida bevosita axborot

<sup>17</sup> Андреева Г.М. Общение и деятельность (На русском и чешском языках)— Прага, Издательство Карлова университета, 1984. [file:///C:/Users/User/Downloads/master-i-pedagog%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/master-i-pedagog%20(1).pdf)

<sup>18</sup> Еникеев М. И. Общая и социальная психология. М.: 1999. – 624 с.

<sup>19</sup> Брудный А.А. Язык, сознание и действительность автореферат док.фил.наук Фрунзе 1970, -20 с

<sup>20</sup> Л.А.Карпенко Краткий психологический словарь— М.: Политиздат, 1985-431 с

<sup>21</sup> Винер Н Кибернетика, или Управление и связь в животном и машине. М.: Советское радио, 1958-344 с.; Маклюэн М «Галактика Гутенберга: Становление человека печатающего» (1962) с-112 ; Прилюк Ю.Д Проблема общения в историческом материализме - Киев : Наук. думка, 1985. - 192 с.; Парсонс Т.Общетеоретические проблемы социологии// Социология сегодня: Проблемы и перспективы / Р. К. Мертон, Л.Брум., Л. С. Коттрелл (ред.). — М.: Прогресс, 1965. с.25-67; Cherry, Colin. On human communication (неопр.). — MIT Press, 1966- с 374; Петрова И.С.Этические основания кросскультурных коммуникаций автореферат 2008. с-6

almashishdir, shu bilan bir qatorda biz buni dialogik va monologik nutqning har ikkala tilda farqli hamda o'xshash tomonlarini tahlillar asosida yoritib berdik. Masalan, o'zbek tilida:— *Albatta, birisi kun biznikiga marhamat qilasiz, tuzikmi? — Xo' b, amak. — Bizniki mana shu burchakdagi eshik... Qaytag'a bu kun biznikida qolsangiz bo'lmasmi-a? — Rahmat... Xayr, salomat bo'lingiz.* (A. Qodiriy "O'tkan kunlar", 21-b). Ingliz tilida:— *"Hello, Wilson, old man," said Tom, slapping him jovially on the shoulder.* (Salom, oqsoqol Uilson, - dedi Tom uning yelkasiga xushchaqchalik bilan urib).- *"How's business?"* . ("Biznes qanday?"). - *"I can't complain," answered Wilson unconvincingly.* ("Shikoyat qilmayman", - ishonchsiz javob berdi Uilson.). (F. Scott Fitzgerald "The Great Gatsby", chapter 2, p-13) Ushbu misolda qo'llanilgan *"Hello", "How's business?"* so'zlari orqali ikkita tanish insonlarning salomlashishi va ishlari qanday ketayotganligi haqida so'rayotganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, har ikkala tilda dialogik nutqning farqli tomonlari mavjud emas. *Monologik nutq* esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjudligi hamda har ikkala tilda farqli tomonlari mavjud emasligi ishda keng tahlil qilingan.

**Muloqotning perseptiv tarkibi** muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Dissertatsiyada muloqot jarayonida nutqiy etiketlarning ishlatilishi misollar asosida keng yoritib berilgan. Jumladan, biz ingliz tilida perseptiv tarkibni notanish yoki hurmatli insonlar bilan muloqotga kirishilayotganda *"Mrs/Ms/Miss* (ayollar uchun) va *Mr* (erkaklar uchun)" shakllari ismdan oldin qo'llanilishi orqali aniqlashimiz, o'zbek tilida esa bunday shakllar mavjud emasligini quyida keltirilgan misollarda ko'rishimiz mumkin:— *"...Mrs. Van Hopper had atrained nurse"* ("... *Van Xopper xonim hamshirani malakasini oshirganini ma'qul ko'rdim.*") (Daphne de Maurier "Rebecca" Moscow, Iris press 2010, p-13) Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish lozimki, kommunikatsiyada yoki kommunikativ muloqotda aloqani o'rnatishda interaktiv, kommunikativ va perseptual yondashuvlarning lingvomadaniy hamda nutqiy etiket birliklari orqali ifodalanishi o'zbek va ingliz tillaridagi tahlillar asosida yoritib berildi. Bunga ko'ra, har uchala yondashuvning qo'llanilishida madaniyatlararo o'xshashliklarni ko'rish mumkin.

**"Kommunikatsiyada "Xushmuomalalik" tushunchasining qiyosiy-tipologik tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlari"** nomli bobning uchinchi bo'limida o'zbek va ingliz tillarida xushmuomalalikning asosiy mezonlari qiyosiy tasnifi hamda lingvomadaniy xususiyatlari yoritib berildi. Xushmuomalalik muammosining lingvistik omillari so'nggi yillarda jahon tilshunosligida, P. Braun va S. Levinson, G. Kasper, R. Lakoff, R. Uots<sup>22</sup> va rus tilshunoslari Ye. A.

---

<sup>22</sup> Brawn P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge, 1987 [https://pure.mpg.de/rest/items/item\\_64421/component/file\\_2225570/content](https://pure.mpg.de/rest/items/item_64421/component/file_2225570/content); Kasper G. Linguistic Politeness: Current Research Issues // Journal of Pragmatics, 1990, Pages 193-218; Лакофф Р. Прагматика публичного извинения /Жанры речи.. — Саратов: Издательский центр «Наука», 2007 - С. 183-192; Watts R., Ide S., Enrich

Zasepina, T. V. Larina, N. I. Formanovskaya, L. V. Xoxlovalar<sup>23</sup>ning ilmiy tadqiqotlari yuzaga keldi. Xorijiy tilshunoslikdagi gender yondashuvi vakillari K. Kristi, S. Mills, L. Mullani<sup>24</sup> va boshqalar odob-axloqni erkaklar va ayollar o'rtasidagi muloqot jarayonida kommunikativ kategoriya sifatida o'rganishdi.

Xushmuomilalikning asosiy mezonini salomlashish va xayrlashishning an'anaviy shakllari bir biri bilan chambarchas bog'langan nutqiy etiketning juftlarini shakllantiradi. O'zbek milliy madaniyatida "Assalomu alaykum" so'zining etimologiyasida bu so'z arab tilidan olingan bo'lib, "السَّلَامُ عَلَيْكُمْ" - "Sizga tinchlik tilayman" yoki "Sizga sog'lik tilayman" degan ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilida salomlashishning ekvivalenti sifatida "Good morning (evening, afternoon)" - "Kuningiz xayrli bo'lsin" so'zi ishlatiladi. Halliday<sup>25</sup> tomonidan yana bir tasnif ishlab chiqilgan bo'lib, ingliz tilida salomlashishning vaqtsiz va muddatsiz ekanligi tasniflanadi. 1. **Vaqtsiz (erkin) salomlashish. (Time-free greetings:)** A. *How do you do?* (Qalaysan; ishlaring yaxshimi?) B. *Hello. How are you?* (Salom. Qandaysan?) C. *Hi. How are you?* (Salom (norasmiy salomlashish turi asosan yaqin tanishlar orasida ishlatiladi) Qandaysan?) 2. **Vaqt (chegarali) bilan salomlashish. (Time-bound greetings)** A. **Daily formal greetings: (Kundalikda ishlatiladigan rasmiy salomlashishlar)** 1. *Morning: Good Morning* (Ertalabki salomlashish: Xayrli tong!) 2. *Afternoon: Good afternoon.* (Tushdan keyingi salomlashish: Xayrli kun!) 3. *Evening: Good evening* (Kechki salomlashish: Xayrli kech!) B. **Seasonal (in) formal greetings: (Mavsumda ishlatiladigan (no)rasmiy salomlashishlar)** 1. *Happy New Year!* (Yangi Yilingiz bilan!) 2. *Happy Anniversary!* (Yubileyngiz bilan!).<sup>26</sup> O'zbek tilida esa bunday salomlashish turi og'zaki muloqotda mavjud emas, lekin yozma va badiiy kontekstlarda "Xayrli tong (kun, kech)" kabi semalarni ko'rishimiz mumkin. Ko'pgina hollarda salomlashishning yaqin tanishlar o'rtasida ishlatiladigan "Salom" formasini o'zbek va ingliz tillaridagi o'xshash va farqli tomonlari quyidagicha talqin qilinadi: — *Salom, og'a!* — .....(Chingiz Aytmatov "Sarvqomat Dilbarim" 3-b). **Ingliz tilida: -Hello, Poppy.** ..... ("Wild child" movie) Keltirilgan har ikkala misolda ham salomlashishning noodatiy va norasmiy ko'rinishi aks ettirilgan. "Salom" (O'zbek tilida)- "Hello" (Ingliz tilidagi ekvivalenti) odatda siz bilan bog'lanishda tanish odamlar o'rtasida norasmiy muloqotda qo'llaniladi.

Muloqotning yakunlanishi esa xayrlashish yoki kommunikatsiyaning oxirgi bosqichidir. Bu muloqotdagi shaxs bilan aloqani uzayotganimizni va uni kelajakda saqlab qolinishi uchun zarur bo'lgan muloqot vositasi hisoblanadi : "Poka" -

---

